

O'ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA DUAL TA'LIM TIZIMINING MARKETING IMKONYATLARI .

Xasanova Adolat Shukrullayevna

Jizzax Davlat pedagogika institut
"Ta'lif muassasalarining boshqaruvi"
1- bosqich talabasi

Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi professional ta'lifida o'qitishning dual tizimini tashkil etish to'g'risida"gi qarori loyihasi e'lon qilindi.

O'zbekiston Respublikasi professional ta'lifida o'qitishning dual tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlanadi.

Nizomga ko'ra, dual ta'lifni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, boshqa qonun hujjatlariga, shuningdek, ushbu Nizomga amal qilinadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, vazirlik va idoralar hamda oliy ta'lif muassasalari tegishli kasb (mutaxassislik)lar bo'yicha o'rta bo'g'in kadrlarga bo'lgan ehtiyoj asosida dual ta'lif joriy etiladigan korxona (tashkilot)larni aniqlaydi va ro'yxatini Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligiga taqdim etadi.

Bunda, mustaqil faoliyat ko'rsatuvchi korxona (tashkilot)lar dual ta'lif joriy etish bo'yicha Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligiga taklif kiritishlari mumkin.

Dual ta'lif tashkil etiladigan professional ta'lif muassasalari O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi tomonidan belgilanadi. Dual ta'lif tashkil etilishi ko'zda tutilayotgan ta'lif muassasalari imkoniyatlari Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi tomonidan belgilangan ekspertlar ishtirokida o'rganilishi mumkin.

Kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lif shaklida ta'lif olayotgan o'quvchilar dual ta'limga o'qishini ko'chirish taqiqlanadi. Shuningdek, Ta'lif muassasasi va korxona (tashkilot) o'rtasida yoki korxona (tashkilot) va o'quvchi(lar) o'rtasida tuzilgan shartnomalar qilinganda o'quvchi(lar) o'qishi mos ta'lif darajasidagi kunduzgi ta'lif shakliga o'tkaziladi.

Dual ta'lifda o'quvchilar to'lov-kontrakt yoki davlat buyurtmasi bo'yicha davlat granti asosida ta'lif olishlari mumkin.

To'lov-kontrakt miqdori tizimida Ta'lif muassasalari mavjud bo'lgan vazirlik va idoralar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda belgilanadi.

O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish, yirik va kichik biznes sub'yektlarida aholi, ayniqsa yoshlar va xotin-qizlarning bandligini ta'minlash hamda kambag'allikni qisqartirish uchun mehnat faoliyati bilan ta'lifni uyg'unlashgan holda tashkil etish orqali malakali kadrlar tayyorlash - Dual ta'lifning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Dual ta'lifni tashkil etishning vazifalari quyidagilardan iborat:

korxona (tashkilot)dagi ishlab chiqarish sharoitlari bilan Ta'lif muassasalari o'quv jarayonlarini o'zaro bog'lash;

o'quvchilarni mehnat faoliyati ishtirokchisiga aylantirish orqali ta'lifning ishlab chiqarish bilan bog'liq amaliy qismini korxona (tashkilot)larda hamda nazariy va o'quv-amaliy qismini Ta'lif muassasalarida tashkil etish;

hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish hamda iqtisodiyotning real ehtiyojlarini hisobga olgan holda o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlashni takomillashtirish;

korxona (tashkilot)lar hamda Ta'lif muassasalarining o'zaro hamkorlik formatlari va modellarini ishlab chiqish;

ta'lim dasturlarini mehnat faoliyati bilan uyg'unlashgan holda amalga oshirgan holda kompetensiyalarni shakllantirish;

ta'lim dasturlarini ish beruvchilarning talablari va ulardagi texnologik yangilanishlar asosida takomillashtirib borish;

kadrlarni tayyorlash va ta'lim dasturlarini amalga oshirishni moliyalashtirish;

korxona (tashkilot)lar va Ta'lim muassasalari o'rtasidagi o'zaro tarmoq hamkorligining shakl va uslublarini takomillashtirish;

bitiruvchilarni baholashda korxona (tashkilot)lar ishtirokini yanada kengaytirish;

turli yoshdag'i aholi qatlamini tegishli kasb (mutaxassisliklar) bo'yicha kvalifikatsiyalarni o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish.

Dual ta'limni amalga oshirish quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi:

Dual ta'lim tashkil etiladigan korxona (tashkilot)larni Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimligi, vazirliklar va idoralar taklifi asosida aniqlash;

Korxona (tashkilot) va Ta'lim muassasasi hamda korxona (tashkilot) va o'quvchi o'rtasida shartnoma tuzish;

O'rta bo'g'in kadrlariga bo'lgan ehtiyojni aniqlash;

Kasbga yo'naltirish ishlarini tashkil etish;

Ta'lim dasturlarni ishlab chiqish hamda yangilab borish;

Mehnat bozorida kadrlarga bo'lgan talab va takliflarni inobatga olgan holda Dual ta'lim jarayonini tashkil etish;

Dual ta'lim dasturlari asosida tayyorlanayotgan kadrlarni baholash.

«Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq, shuningdek yoshlarning kasblar va mutaxassisliklarni egallashga bo'lgan qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash uchun keng imkoniyatlar yaratish maqsadida 2021/2022 o'quv yilidan professional ta'lim tizimida dual ta'lim tashkil etiladi.

Hujjat bilan quyidagilarni nazarda tutuvchi Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risida nizom tasdiqlandi:

dual ta'limni tashkil etish va uning bosqichlarini;

dual ta'limda o'quv jarayoni va ishlab chiqarish amaliyotini olib borish tartibini;

dual ta'lim ishtirokchilarining vazifalari, huquqlari va majburiyatlarini belgilashni.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimligi, manfaatdor vazirliklar va idoralarga quyidagi vazifalar topshirildi:

1 martga qadar iqtisodiyot tarmoqlarida tegishli kasblar va mutaxassisliklar bo'yicha o'rta bo'g'in kadrlariga bo'lgan ehtiyojni muntazam o'rganib, dual ta'lim tizimini tashkil etish hamda bitiruvchilar bandligini ta'minlash yuzasidan tegishli chora-tadbirlarni belgilash;

1 aprelga qadar dual ta'lim tashkil etiladigan tashkilotlar bo'yicha Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga takliflar kiritib borish.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, shuningdek tizimida professional ta'lim muassasalari bo'lgan idoralarga quyidagilarni amalga oshirish topshirildi:

o'quvchilarni haftada kamida ikki kun professional ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayonlarida ishtirok etishlarini va qolgan ish kunlarida tegishli tashkilotlarda amaliy mashg'ulotlar bilan birga mehnat faoliyati olib borishlarini ta'minlash;

professional ta'lim muassasalarida dual ta'lim jarayonini tashkil etish ustidan tizimli nazorat o'rnatish;

dual ta'limni takomillashtirish va metodik ta'minotini mustahkamlash yuzasidan ilg'or xalqaro tajribalarni tizimli o'rganish ishlarini tashkil etish.

Ta'lim muassasalari kadrlarga ehtiyoji bo'lgan tashkilotlar bilan shartnomalar tuzadi. Shuningdek shartnoma tashkilot va talabalar o'rtasida tuziladi, bunda talabaga muayyan ish taqdim etiladi.


Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta`limning boshlang'ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otib, tizimli o'qitishga tayyorlab boradi. 6-7 yoshgacha bo'lgan maktabgacha ta'lim davlat va nodavlat bolalar

maktabgacha ta`lim muassasalarida va oilada amalga oshiriladi. Maktabgacha ta`limning maqsadi – bolalarni maktabdagi o'qishga tayyorlash, bolani sog'lom, rivojlangan, mustaqil shaxs bo'lib shakllantirish, qobiliyatlarini ochib berish, o'qishga, tizimli ta`limga bo'lgan ishtiyoyqini tarbiyalashdir.

Maktabgacha ta`lim muassasasida bolalarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish maktabgacha ta`lim muassasasi hamda shtatdagi tibbiyot xodimlari, shuningdek maktabgacha ta`lim muassasasiga biriktirilgan sog'liqni saqlash organlarining tibbiyot xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta`lim muassasasida bolalarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishni tashkil etish tartibi va qoidalari, maktabgacha ta`lim muassasasiga bolalarni olib kelish va olib ketish qoidalari, maktabgacha ta`lim muassasasi binolarida xavfsizlikni tashkil etishga oid talablar, maktabgacha ta`lim muassasasida yong'in xavfsizligini tashkil etishga oid talablar, hudud xavfsizligiga bo'lgan talablar “Maktabgacha ta`lim muassasalarida bolalarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishni tashkil etish tartibi to'g'risida Nizom” bilan tartibga solinadi.

Maktabgacha ta`lim tizimi



Maktabgacha ta'lim muassasalari – O'zbekiston Respublikasidagi ta`lim muassalarining turi bo'lib, turli yo'naliishdagi maktabgacha bo'lgan davrdagi umumta`lim dasturlarini amalga oshiradi. Maktabgacha ta`lim muassasalari 2 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni tarbiyalashni, o'qitishni, nazorat qilishni, parvarishlashni va sog'lomlashtirishni ta`minlaydi.

Maktabgacha ta`lim muassasasini tashkil etish tartibi, faoliyatini tashkil etish va butlash, hamda maktabgacha ta`lim muassasasining mol-mulki va pul mablag'lari, javobgarligi, boshqaruvi va ta`lim jarayoni qatnashchilari to'g'risidagi kerakli ma'lumotlarni “O'zbekiston Respublikasida davlat maktabgacha ta`lim muassasasi to'g'risida Nizom” dan olishinigiz mumkin.

O'zbekistonda maktabgacha ta`lim muassasalarining zamonaviy tizimi

Maktabgacha ta`lim muassasalari, faoliyat yo'naliishiga ko'ra, quyidagi turlarga bo'linadi:

Bolalar yaslisi, bolalar yasli bog'chasi, bolalar bog'chasi, uydagi bolalar bog'chasi (mustaqil muassasa yoki filial sifatida).


Maktabgacha tarbiya va boshlang'ich ta`lim mussasasi (bolalar bog'chasi-maktab).

Tarbiyalanuvchilarni bir yoki bir nechta yo'naliishda (til, badiiy estetik, sport va boshqalar) tarbiyalovchi maktabgacha ta`lim muassasalari.

Tarbiya jismoniy va ruxiy rivojlanishdagi og'ishlarni kvalifikatsion yaxshilovchi tiklovchi turdag'i bolalar bog'chasi.

Tibbiyot gigiena, profilaktika va sog'lomlashtirish, tadbir va proseduralarini amalga oshiruvchi zaiflashgan bolalarni nazorat qilish va sog'lomlashtirish bog'chasi.

Birlashtirilgan turdag'i bolalar bog'chasi (birlashtirilgan turdag'i bolalar bog'chasiga rivojlanuvchi, tiklovchi va sog'lomlashtiruvchi guruuhlar umumlashtirilgan ko'rinishda kiradi).



Maktabgacha ta`lim muassasasining ish tartibi va u yerda bolalarning bo`lish davomiyligi davlatning maktabgacha ta`lim sifat va darajasiga bo`lgan talablari, nizom, maktabgacha ta`lim muassasasi va ota-onalar orasida tuzilgan shartnoma, hamda ta`sischilar tomonidan belgilanadi. Imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun maxsus maktabgacha ta`lim muassasalari tashkil qilingan bo`lib, u yerga bolalar davlatning joylardagi vakolatli ta`limni boshqarish va sog`liqni saqlash organlari tarafidan tashkil qilingan ruhiy-tibbiy pedagogik komissiyaning xulosasiga binoan qabul qilinadi.

Maxsus maktabgacha ta`lim muassasasini tashkil etish tartibi, mol-mulki va pul mablag`lari, maxsus maktabgacha ta`lim muassasasida o`quv-ta`lim va sog`lomlashtirish jarayonini tashkil qilish, ta`lim jarayoni ishtiroychilari va maxsus maktabgacha ta`lim muassasasining boshqaruvi haqidagi to`liq ma`lumotlar “Maxsus davlat maktabgacha ta`lim muassasasi to`g`risidagi Nizom” da ko`rsatilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati:

1. «Mutaxassislik fanlarini o`qitish metodikasi» fanining namunaviy dasturi. TTESI, T., 2012.
2. Tolipov O., Barakayev M., Sharipov SH., “Kasbiy pedagogika” – T., 2001 yil.
3. Xadjaboev A., Xusanov I. “Kasbiy ta`lim metodologiyasi” – T., 2007 yil.